QIZIQISH SHAXSNING MUHIM PSIXOLOGIK XUSUSUYATI SIFATIDA

Tòliboyeva Shahnoza
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti 3- bosqich talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada qiziqishning psixologik xususiyati, uning turlari, qiziqish muammosi bilan kimlar shuǵullanganligi, qiziqishning hozirgi zamon psixologiyasidagi talqini haqida sòz yuritiladi.*

Kalit sòzlar: *Qiziqish, Intellektual qiziqishlar, Estetik qiziqishlar, Progressiv ijtimoiy-siyosiy qiziqishlar, Qiziqish-havas.*

"Ma'lum bir faoliyatga qiziqmay turib qobiliyat haqida gapirib bòlmaydi"
B.R.Qodirov.

Qiziqish-insonlarni faoliyatga undab, uning ǵayratiga-ǵayrat qòshib, tashabbuskorlikka, ijod etishga, yangiliklar yaratishga yòllaydi.Hamisha insonlarning qiziqishiga tòǵri keladigan ishlar unumliroq va osonroq bajariladi.Qiziqishlar umrbod saqlanib qolishi yoki òzgarib turishi ham mumkin.Qiziqishlar insonning hayotini ma'nodor va mazmundor qiladi.

Qiziqish- insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror anglagan holda òzlashtirishda, kònikma va malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq, tushinishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi. Qiziqish motiv singari borliqning mòjizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bòlishni shakllantiradi. Har qaysi yakkahol shaxsda ishchanlik, g'ayrat -shijoat, ishchanlik, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi. Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda qiziqish, faollik ichki turtki, ehtiyojni ròyobga chiqarish manbai rolini bajaradi. Jahon psixologiya fanining yirik namoyondalari shaxsning qiziqishini uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamning aqliy faoliyati bilish jarayonlari, irodasi temperamenti, xarakteri, hissiyoti, qobiliyati bilan umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan boǵliq tarzda tushuntirishga harakat qilganlar. Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan N.A.Ribnikov, N.D.Levitov, M.F.Belyaev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, V.A.Gokareva, E.G.G'oziev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bòlgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi. Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish obektiv borliqning insonlar ongiga subektiv tarzda aks

ettirilishidan biri sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi ma'lum vaziyatdagi turli narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bòlishida insonning òziga xos qaror qabul qilishida, òzini-òzi nazorat eta olishida, maqsadga intiluvchanligida yuzaga kelgan obektiv va subektiv tòsiqlarni yengishida ifodalanadi. Psixologiya fanining yirik namoyondalarining ta'limoticha, qiziqish odamlarning ehtiyojlari negizida yuzaga keladi, yaqqol ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda vujudga keladi, shakllanadi, barqarorlashib boradi, hamda ularning shaxsiy turmush sharoitida va faoliyatida, ijtimoiy ishlab chiqarishda,qatnashishi singari omillarda gavdalanadi. Umumiy talqinlarga asoslanib, mulohaza bildirilganda, qiziqish alohida jarayon, ma'lum psixologik funksiya emas, chunki u his-tuyǵu, ong, iroda, qolaversa, jamiki psixik holatlar hodisalar va ichki kechinmalarning òzida mujassamlashtirgan murakkab tizimli ruhiy voqelikdir. Qiziqishning psixologik mohiyatining dastlabki kòrinishi bu uni odamlar tomonidan anglab yetishi yoki tushinish imkoniyatidir.Shuni alohida ta'kidlash joizki, qiziqishning psixologik mohiyati, namoyon bòlishi aqliy jarayonlar muhim rol òynashi hodisasi qayd qilinishi, u faqat intellektdan tashkil topadi, degan ma'no anglatmaydi albatta. Inson òz shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his-tuyǵular, lazzatlanish yuzaga keladi. Odamlardagi qiziqishlarni biz, avvalo, bu qiziqishlarning mazmuniga qarab turlarga ajratamiz. Qiziqishning mazmuni keng ma'noda olingan voqelikdagi qanday narsalar yoki soha bilan qiziqilganligiga bog'liq bo'ladi, shular bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-siyosiy qiziqishlar ham mavjuddir. Bu qiziqishlar jamiyatga foyda keltiradigan yoki reaksion jamiyat uchun zararli, yemiruvchi qiziqish bo'lmog'i mumkin. Progressiv ijtimoiy-siyosiy qiziqishlar kishidagi eng yuksak, qimmatli qiziqishdir. Kishilarning individualligi faqat unda ijtimoiy qiziqishlarning mavjudligi bilan emas, balki yana mana shu ijtimoiy qiziqishlarning undagi shaxsiy qiziqishlar bilan bo'lgan nisbatida hamdir. Kishidagi ijtimoiy qiziqishlar uning shaxsiy qiziqishlaridan ustun bo'lganda, undan ham muhimrog'i, kishining shaxsiy qiziqishlari ijtimoiy qiziqishlar bilan mos bo'lgandagina shaxsning ma'naviy hayoti ko'rkamroq bo'ladi.

Intellektual (aqliy) qiziqishlar yuksak ijobiy qiziqishlardir. Ana shunday qiziqish egalari uchun o'z hayotlarida eng muhim narsa - fan bilan mashg'ul bo'lish, kerakli nazariy va amaliy masalalarni hal etishdir. Chunonchi, buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur, musiqashunos, olim, maqol janrining ijodkori, Muhammadjon Mirzayev, matematik, fizik olim Qori Niyoziy, O'zbekiston FA akademigi I.S. Salimov va boshqalar ana shunday qiziqish bilan yashadilar.

Estetik qiziqishlarning o'ziga berilib ishlaydigan kishilar ham bo'ladi. Bunday odamlar uchun o'z hayotlarida eng asosiy narsa san'at va unga xizmat qilish qimmatbaho san'at asarlari yaratishdir. Chunonchi, rus kompozitorlaridan Glinka, Musorgskiy, Chaykovskiy va Moskva badiiy teatriga asos solgan Stanislavskiylar mana shunday kishilardandir. Ayrim kishilarda past va sayoz qiziqishlar ham bo'ladi. Bunday past qiziqishga faqat o'zining hissiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qiziqishlar kiradi. Ana shunday qiziqishlar quli bo'lgan

odamlar uchun hayotlarida eng muhim bo'lgan narsa ular hatto moddiy jihatdan ta'minlangan bo'lsalar ham ovqat yeyish, ichish, uxlash va umuman olganda nafsini qondirishdan iboratdir. Chunonchi, Gogolning «Qadimgi zamon pomeshchiklari» povestidagi Afanasiy lvanovich va Pulxeriya lvanovnalar xuddi shu tipdagi odamlardir. Shuningdek, faqatgina shaxsiy boylikka - pul yig'ish, dunyo to'plashga qiziqadigan pastkash odamlar ham bor. Bunday odamlar o'zining eng zarur ehtiyojlarini qondirishdan ham voz kechib, yemay, ichmay, kiyinmay, faqat dunyo to'plashga, mol yig'ishga harakat qiladi. Faqat o'z nafsini ko'zlash, dunyo to'plash, molparastlikka qaratilgan tuban qiziqishlar nuqul xudbinlik xarakteridagi qiziqishlardir. Bunday qiziqishlar nuqul jamiyat manfaatlariga zid bòlib, boshqa kishilar farovonligiga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, bunday qiziqishlar kishi ongini nihoyatda chegaralab, uni puch, pastkash bir shaxsga aylantirib qo'yadi. Kishidagi qiziqishlar doirasi har xil bo'ladi. Odamlar o'zidagi qiziqish doirasining keng yoki tor bo'lishiga qarab ham bir-biridan farq qiladilar. Faqat birgina narsaga qiziqish bilan cheklanib, boshqa narsalarga e'tibor bermaydigan odamlarni qiziqish doirasi tor kishilar deb ataladi. Voqelikdagi ko'p sohalarga qiziqadigan kishilarning qiziqish doirasi xilma-xil va keng bo'ladi. Lekin shu bilan birga bunday kishilarda bir qiziqish asosiy, markaziy o'rinni oladi. Qiziqish-havaslar doirasining keng, xilma-xil bo'lishi, ko'pincha bu qiziqish-havaslarning yuksak va chuqur mazmunli bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Kuchli qiziqishda ko'pincha kuchli hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, kishida ehtiros tarzida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, odatda, «ehtirosli qiziqish», «zo'r havas» degan iboralar ishlatiladi. Kishidagi zo'r havas chidam, sabr-toqat va sabotlilik singari iroda sifatlari bilan bog'langan bo'ladi. Muayyan bir darajadagi kuch bilan namoyon bo'ladigan qiziqish-havaslar, yana kishilarda barqarorlik yoki doimiylik darajasi bilan ham birbiridan farq qiladi. Ba'zi kishilar bo'ladiki, ularda hosil bo'lgan muayyan qiziqish-havaslar doimiy bo'lib, umrbod saqlanib qoladi. Chunonchi, Lomonosov, Michurin, Prjevalskiy, Gorkiy singari kishilarda bòlgan qiziqishlar shunday doimiy, barqaror qiziqishlardandir. Ba'zi odamlar bir narsaga juda qattiq qiziqadilar, kuchli, zo'r havas qo'yadilar, lekin ulardagi qiziqish-havaslar uzoqqa bormaydi; bunday odamlardagi biror narsaga, biror-bir faoliyatga bo'lgan zo'r qiziqish-havas o'rnini darrov boshqa bir xil va shunday zo'r qiziqish-havas oladi.

Shuni xulosa qilish mumkinki, qiziqishlar insonni yuksaltiradi, bajaradigan ishini unumdor qilib, unga yuqori kayfiyat baǵishlaydi.Qiziqishlar doirasi albatta insonlarning individual psixologik xususiyatidan kelib chiqadi. Insonlarda qiziqishlarning òsishi atrof-olamga, yashayotgan muhitdagi insonlarga ham boǵliq.Qiziqishlar yanada yuksalib, insonni yuqori darajalarga erishishiga zamin yaratishi yoki sònib qolishi ham mumkin. Uning rivoji ham sònishi ham insonning òziga boǵliq. Shaxsdagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil etadigan faoliyat bilan mashǵul bòlishga, maqsadga muvofiq ravishda shuǵullanishga, mayl yaratishga puxta zamin yaratish zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e'tiqod funksiyasini bajarishga aylansin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova- "Umumiy psixologiya"-2008;
2.E.G'oziev-"Umumiy psixologiya"-2002;
3.F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova-T-2009.